O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI





“ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZABR MASALALARI”

mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

15-16-aprel

Guliston — 2022

Ushbu to‘plamdan Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan **“Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”** mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101/F-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan 2022-yilda respublika miqyosida o’tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq o‘tkazilgan adabiyotshunos olimlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli talabalarning respublika ilmiy anjumaniga materiallari o‘rin olgan.

To‘plam materiallarida adabiyotshunos olimlar Umurzoq O‘ljaboyev va Vahob Rahmonovlarning hayoti va faoliyati, ularning ilmiy merosi, ijodiyotining o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi sohasiga qo‘shgan ulkan hissalari, ijodiy merosining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini tadqiq qilish, o‘zbek adabiyotshunosligi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, sohadagi muammolarni aniqlash, ularning talqini, matnshunoslik va tabdil, badiiy asarlarning til xususiyatlari, adabiy ta’sir masalalari yoritilishi anjumanning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Shuningdek, to‘plamdan badiiy adabiyot shakllanishining va rivojlanishining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalar ham o‘rin olgan.

Tahrir hay’ati:

Rahmonov Nasimxon – filologiya fanlari doktori, professor
Yo‘ldoshev Qozoqboy – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamatqulov Muzaffar – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Fayzullayeva Obidaxon – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sariboyeva Maqsuda – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
Qo‘yliyeva Gulchehra – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
To‘rayeva Dilnoza – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
To‘ychiyev Abdunabi – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Primov Abdulatif– O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Saymuratova Ijobat – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Normurodov Oybek– O ‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
Oqbo‘tayev Elbek – O ‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
To‘raqulov Rahmatjon – O ‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Obidaxon Fayzullayeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur to‘plam Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 23-apreldagi 9-sonli yig‘ilishi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

kelishida xalq baxshilarining voqelikni epik ideal doirasida aks ettirishlarida ertak janrining estetik prinsiplariga asoslanganliklaridan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shohdorxon. Aytuvchi: Usmon Mamatqul o‘g‘li// Balogardon. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – T. : G‘. G‘ulom nomidagi AS nashriyoti, 1986.

2. Пропп В. Я. Морфология сказки. – М.: Наука, 1969.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING PARIJ QO‘LYOZMALARI

Oysara MADALIYEVA,
PhD, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
TDShU o‘qituvchisi

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy [1441–1501] asarlari qo‘lyozmalari tarqalishining geografik chegarasi ikki hodisa bilan bog‘lanadi. Bulardan birinchisi, Navoiy hayotligi chog‘idan to XX asrgacha uning asrlari shoir yashagan hududning tashqarisida ham ko‘chirilavergan [8]. Ikkinchisi, bir hududda ko‘chirilgan qo‘lyozmalar turli sabab bilan boshqa mamlakatlarga olib ketilgan [22, 30]. Natijada, Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tarqalish geografiyasi kengayib boravergan. Shu ma’noda, shoir asarlari qo‘lyozmalarining ko‘chirilish joyi hamda saqlanish joyi kabi tushunchalar shakllangan va bular boshqa-boshqa hodisalar hisoblanadi.

M.Toutant Navoiy ijodiy merosi haqida shunday yozadi: “Shoir ijodi Yevropa olimlari uchun uzoq vaqt noma’lum bo‘lib qolmadi” [29, 44]. Aytish mumkinki, Navoiy ijodini tadqiq etish Yevropa, xususan, Fransiyada hozirgi kunda ham yetarli darajada rivojlanib bormoqda [29]. Navoiy asarlarining Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmalari kunimizga qadar bir qancha olimlar tomonidan turli yo‘nalishda o‘rganildi [13; 14; 15; 16; 17; 18; 19; 20; 21; 23; 24; 25, 29; 30]. Biz mazkur maqolada ushbu qo‘lyozma asarlarning umumiy jihatlari va ularning tarkibi bo‘yicha aniqlangan ba’zi yangiliklar borasida so‘z yuritamiz.

Manbalarga ko‘ra, Fransiya milliy kutubxonasida Navoiy asarlarining o‘ttizdan ortiq nusxalari mavjud [29, 53]. Biz shulardan “Kulliyoti Navoiy”, shuningdek, asarlaridan o‘n bittasining alohida tartibdagi nusxalari – jami yigirma ikkita qo‘lyozmaning tavsiflarini amalga oshirdik [30, 109-110]. Quyida ularning qisqa tavsiflari berilgan jadval bilan tanishishingiz mumkin.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING FRANSIYA MILLIY KUTUBXONASIDA SAQLANAYOTGAN QO‘LYOZMALARI

1- jadval

T/r	Asar nomi	Ko‘chiruvchi	Ko‘chirilgan vaqti va joyi	Xat turi	Hajmi	Inv. №
1.	*Badoe’ ul-bidoya*	–	885/1480–1481	nasta’liq	231 varaq	Suppl. turc. 746
2.	*Badoe’ ul-bidoya*	–	–	nasta’liq	194 varaq	Suppl. turc. 991
3.	*Devon*	Mirak ibn	979/1571–	nasta’liq	209	Suppl. turc.

		Xovand Muhammad Shayx	1572, Samarqand		varaq	997
4.	*Kulliyot* [1-jild]	Ali Hijroniy	933/1526-1527, Hirot	nasta'liq	496 varaq	Suppl. turc. 316
5.	*Kulliyot [1-jild]*	Ali Hijroniy	933/1526-1527, Hirot	nasta'liq	409 varaq	Suppl. turc. 317
6.	*Lison ut-tayr*	–	960/1552–1553	nasta'liq	60 varaq	Suppl. turc. 996
7.	*Lison ut-tayr*	–	–	nasta'liq	156 varaq	Suppl. turc. 331
8.	*Majnun va Layli*	Darvesh Ahmad ibn Shayx Junayd ibn Mavlono Ya'qub	1 sha'bon 889/24 avgust 1484	nasta'liq	128 varaq	Suppl. turc. 1008
9.	*Majolis un-nafois*	–	14 shavvol 1059/21 oktyabr 1649	nasta'liq	73 [16-73б] varaq	Suppl. turc. 1003/I
1.	*Majolis un-nafois*	–	–	nasta'liq	109 varaq	Suppl. turc. 965
10.	*Mahbub ul-qulub*	Sayyid Qosim al-Qorabog'iy	977/1569–1570	nasta'liq	89 varaq	Suppl. turc. 327
11.	*Farhod va Shirin*	Pir Ahmad ibn Iskandar	941/1534–1535	nasta'liq	182 varaq	Suppl. turc. 980
12.	*Xamsat ul-mutahayyirin*	–	30 sha'bon 939/17 mart 1533	nasta'liq	60 varaq	Suppl. turc. 976
13.	*Xamsat ul-mutahayyirin*	Muso as-Samarqandiy	961/1554, Makka	nasta'liq	110 varaq	Suppl. turc. 747
14.	*Xamsat ul-mutahayyirin*	Mas'ud ibn Ibrohim ibn Amrilloh ibn Abdi ibn Turmish	Rabi' I ning boshi 1077/sentyabr 1666, Istanbul	nasta'liq	119 varaq	Suppl. turc. 329
15.	*G'aroyib us-sig'ar*	Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy	972/1564–1565	nasta'liq	286 varaq	Suppl. turc. 762
16.	*G'aroyib us-sig'ar*	–	–	nasta'liq	134 varaq	Suppl. turc. 994
17.	*"G'aroyib us-sig'ar" debochasi*	–	–	nasta'liq	23 varaq	Suppl. turc. 328
18.	*Hayrat ul-abror*	–	XVIII asr	nasta'liq	141 varaq	Suppl. turc. 1247
19.	*Hayrat ul-abror*	–	–	nasta'liq	177 varaq	Suppl. turc. 999
20.	*Hayrat ul-abror*	–	–	nasta'liq	63 varaq	Suppl. turc. 1366
21.	*Hayrat ul-abror*	–	–	usmonlicha nasx	120 varaq	Suppl. turc. 982

Kulliyot [كليات] so‘zi arabcha bo‘lib, “jamlangan”, “to‘plangan” ma’nosini bildiradi va uzoq asrlar sharq adabiyotida qo‘llanib keladi [23, 84]. “Kulliyot – shoir yoki adib asarlarining bir muqovaga olingan yaxlit, mukammal to‘plami. Alisher Navoiy [1441–1501] umrining oxirida o‘z asarlarining kulliyotini tuzdi va unga faqat o‘zbek tilidagi 26 asarini kiritdi.

Navoiy kulliyotining Parij nusxasi Ali Hijroniy [vaf. XVI asr] tomonidan 930–933/1525–1527-yilda Hirotda ko‘chirilgan [7]. M. Hakimov [1935-2001] ma’lumotiga ko‘ra, foydalanishga qulay bo‘lishini ko‘zlab, kutubxona xodimlari tomonidan ushbu kulliyot ikki qismga ajratib jildlangan.

Navoiy kulliyotining Parij nusxasi haqida bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan [19; 20; 21; 23; 24; 25]. Kulliyotni dastlab tavsiflagan olim Edgar Bloshening [1870-1937] qo‘lyozmaga yozib qoldirgan qaydlari o‘sha davrda Alisher Navoiy asarlariga nisbatan Yevropada shakllangan “tarjima”, “taqlid” kabi yondashuvlarning bir qismi siftida baholangan [29, 53]. Qaydlarga diqqat qiling: “Arba’in hadis”, Jomiy yaratgan shunday nomli asarning she’riy tarjimasi”; “Nazm ul-javohir”, turkiy ruboiylar shaklidagi parafraza, “Nasr ul-laoliy”ning forscha ruboiylari tarjimasi; “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”, Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot al-quds” asarining tarjimasi, muallif uni 901 [1495]-yili tugatgan, bu ishni o‘z zimmasiga olishga uzoq vaqt ikkilangan, 33 nafar hind shayxlari xususidagi izohlar va Jomiy biografiyasi bilan to‘ldirgan va boshq. [29, 53].

“Shoirning ba’zi eng muhim asarlari sanab o‘tilgan ushbu parchada, ko‘pincha “taqlid” va “tarjima” atamalari, gohida esa “asosida”, “parafraza” kabi atamalar qaytariladi. Bundan “o‘ziga xos bo‘lmaganlik” tamg‘asi bosilgan shoir tasvirichiqib keladi va asarlari hajmi ilhom yetishmaganligining o‘rnini bosmaganmikan degan savol tug‘iladi. Har holda Milliy kutubxonaning qo‘lyozmalariga mas’ul bo‘lgan sharqshunosning bir necha-yillar oldin bildirgan fikri xuddi shunday edi”, deb yozadi M. Toutant [29, 53]. Demak, Navoiy kulliyotining Parij qo‘lyozmasidagi mazkur qaydlar kulliyot tarkibidan o‘rin olgan asarlarning nomlarinigina ifodalamay, ayni paytda Navoiy ijodiga nisbatan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa sharqshunoslarining munosabatini ham anglata oladi.

Yuqorida tavsiflari keltirilgan “G‘aroyib us-sig‘ar”ning Parij nusxalaridan ikkitasining elektron shakli qo‘limizda mavjud bo‘lganligi sabab, bu qo‘lyozmalarning tarkibini sinchiklab o‘rganib chiqdik va Navoiy devonlari nusxalari tavsiflariga xos bo‘lgan holat diqqatimizni tortdi. Unga ko‘ra, ko‘p hollarda katalogizatorlar Navoiy devoni qo‘lyozmasining dastlabki g‘azallariga ko‘ra, devonga nom beradilar. Ammo tajribalar Navoiy devonlari nusxalarining dastlabki she’rlari uning qaysi devon ekanini belgilay olmasligi, balki qo‘lyozmaning tarkibini sinchiklab o‘rganish natijasigina devonning aniq nomini bildira olishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Navoiy devonlarining O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan bir necha nusxasi ham dastlabki tavsiflarda ilk she’rlariga ko‘ra, noto‘g‘ri nom bilan tavsif qilingan [12, 268; 21, 698].

Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy tomonidan 972/1564–1565-yilda ko‘chirilgan 762-raqamli qo‘lyozma E. Bloshe tavsiflaganidek, “G‘aroyib us-sig‘ar” emas, “Terma devon” ekani o‘rtaga chiqdi. Qo‘lyozma tarkibidan o‘rin olgan she’rlar “Xazoyin ul-maoniy”ning har to‘rt devoniga mansubligi aniqlandi. Qo‘lyozma devonning 22b–25b varaqlarini ishg‘ol etgan quyidagi misollarga diqqat qiling:

1. Zihî, hilālïŋ olup ay bašïğa tïğ-i balā,
   Bir almasïz ikki yarğan sen-u quyaš maṣalā [FK-7].
2. Falak nilufarïdïn čašma-i mehr oldï gar paydā,
   Yüzüŋdä nildin ül čašma qïlmïš nilufar paydā [FK-33].
3. Čin kiyigi desäm közin, vah, nedürür ‘itāb anga,
   Čunki qarasï körgüzür har sarï musk-i nāb anga [NSh-10].
4. Manga ne manzil-u mavā ‘ayān, ne ḫānumān paydā,
   Ne jānïmdïn aṣar ẓāhir, ne köŋlümdin nišān paydā [FK-34].
5. Nuqṭa-yi muškdur bu yā ḫālï anïŋ jabin ara,
   Kufr savādïnï ne ḫuš sizdi bayāż-i dïn ara [NSh-21].

Mazkur qo‘lyozma devonning 1b–2a varaqlariga miniatyura ishlangan.

Ko‘rkam nasta’liq xatidagi matn nihoyatda did bilan unvon ishlangan 2b varaqdan boshlanadi. Unvonning ichida “Debochai devoni Navoiy” qaydi mavjud. Debochaning va birinchi g‘azalning matni ko‘chirilgan dastlabki varaqlarga [2b–3a; 16b–18a] alohida e’tibor qaratilgan. Debochaning boshlanishi va ilk g‘azalning uchinchi-to‘rtinchi varaqlarida har bir qatorning matni to‘liq oq rangda abri usulida ziynatlangan, matn orasidagi bo‘sh qismga nihoyatda nafis ornament ishlangan. Devonning ochilishida esa frontispis ishlangan [16b–17a], varaqlarning o‘rtasida simmetrik ravishda katta doira shakli chizilib, uning ichiga uch qatordan jami uch bayt “Ashraqat ... ” g‘azali ko‘chirilgan. 16b varaqdagi doiraning ichida she’rning yuqori va pastki qismida “Devoni Amir Alisher”, 17a varaqda xuddi shu tartibda “Navoiy alayhir-rohma” qaydlarini o‘qish mumkin. Aftidan, bu Hirot uslubi bo‘lib, Navoiy asarlarining xuddi shunday kitobat qilingan boshqa nusxalari ham bor [9;3]. “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar”da ushbu uslub ziynatlangan sahifalar nomi ostida taqdim qilingan [24, rasmlar ro‘yxatiga qarang]. Debochada kelgan she’riy matnlar ikki ustunga bo‘lib ko‘chirilgan, ustunlar orasidagi ramka unvonning atrofiga ishlangan ramka bilan bir xil. Umuman, qo‘lyozmani bezatishda zarhaldan ko‘p foydalanilgan, bu uslub saroy kutubxonasi uchun maxsus ko‘chirilgan qo‘lyozmalarni yodga soladi.

Shuningdek, ko‘chirilgan-yili noma’lum, ammo kodikologik xususiyatlariga ko‘ra, saroy kutubxonasi uchun maxsus kitobat qilingan 994-raqamli qo‘lyozma ham “G‘aroyib us-sig‘ar” emas, “Terma devon” ekani aniqlandi. Qo‘lyozma devonning 6a–8a varaqlarida kelgan “Favoyid ul-kibar”ning g‘azallarga diqqat qiling:

1. Ey, yetti manẓar ṭarḥïğa me‘mār-i ṣun‘uŋdïn binā,
   Maṣnu‘lar fāniy, vale maslub-i ṣāni‘dïn fanā [FK-1].
2. Ravšandurur-ki mehr, yüzüŋdin alur ṣafā,
   Yoqsa, ne vajh ilä qamar andïn tapar żiyā [FK-2].

3. Zihî, tājïŋa gavhar-i kibriyā,
Bu gavhardïn āfāq tapïp żiyā [FK-6].
4. Kiši-ki istäsä-kim, yetmägäy malālat anga,
Keräkmäs ahl-i jahān birlä ẕavq-u ḥālat anga [FK-8].
5. Nečä köŋlüm pāra bolsa, raḥm qïlmas yār anga,
Nečä bağrïm bolsa qan, baqmas dame dildār anga [FK-9].

Qo‘lyozma devon quyidagi g‘azal bilan boshlanadi:

‘Ašraqat min ‘aksi šamsi-l-ka’si anvāru-l-hudā,
Yār ‘aksïn mayda kör, dep, jāmdïn čïqtï ṣadā.

Qo‘lyozma “G‘aroyib us-sig‘ar”ning so‘nggi ruboysi bilan yakunlangan:

Til söz bilä tā qïzïttï haŋāmamnï,
Bir ham tiyä almadïm bu ḫudkāmamnï.
Har nečä itikräk äylädim hāmamni,
Ul ḫāma qararaq äylädi nāmamni.

Nusxaning 1b–2a varaqlariga frontisipis, 129b varag‘iga miniatyura ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, bu qo‘lyozma devonlarning har ikkisi o‘z davrining yetuk san’atkorlari tomonidan kitobat qilingan.

Umuman, Navoiy asarlarining Fransiya milliy kutubxonasiga tegishli qo‘limizda mavjud bo‘lgan elektron nusxalari [1, 231; 2, 194; 4, 182; 5, 177; 7: 496, 409; 10, 286; 11, 134] shoir ijodi mahsullarining yuksak did bilan kitobat qilingan qo‘lyozmalari sirasiga kiradi. Ular ayni paytda kitobat va miniatyura san’atining sara namunalarini o‘zida aks ettirgan ko‘hna kitoblar hisoblanadi. Bu qo‘lyozmalar Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘qib-o‘rganishga asrlar davomida turli hududlarda doimiy ravishda mavjud bo‘lgan ehtiyoj mahsuli sifatida ko‘chirildi va tadqiq etilmoqda. Shu ma’noda, Navoiy asarlarining Parij nusxalari haqidagi bizning tadqiqotlarimiz ham davom etadi. Kelgusi ishlarimizda qo‘limizda mavjud bo‘lgan boshqa qo‘lyozma asarlar haqida ham yozish istagidamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. 885/1480–1481. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 746.
2. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 991.
3. Alisher Navoiy. Devon. Kotib: Sultonali Mashhadiy. 905/1499–1500, Hirot. Инв. 21.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. 941/1534–1535. Kotib: Pir Ahmad ibn Iskandar. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 980.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 999.
6. Alisher Navoiy. Ilk devon. 1466-yili ko‘chirilgan qo‘lyozmaning faksimile nashri. Nashrga tayyorlovchi: H. Sulaymon. Toshkent: “Fan”, 1968.
7. Alisher Navoiy. Kulliyot. – Hirot, 1525–1527. Kotib: Ali Hijroniy. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc. 316 va 317.

8. Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni. 1471-yili ko‘chirilgan qo‘lyozmaning faksimile nashri. Nashrga tayyorlovchi: A. Erkinov. – Tokyo: «Research Institute for lanuages and cultures of Asia and Africa», 2015.

9. Alisher Navoiy. Xamsa. Kotib: Sultonali Mashhadiy. – Hirot, 898/1492–93. Inv. Дорн. 560.

10. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. 972/1564–1565. Kotib: Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 762.

11. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc. 994.

12. Alisher Navoiy. G‘azaliyot devoni [898/1492–1493-yil]. Mas’ul muharrir: t. f. d. , prof. B. Abduhalimov. Tadqiqot qismi mualliflari: filol. f. d. A. Erkinov, PhD O. Madaliyeva. Nashrga tayyorlovchi: O. Madaliyeva. – Toshkent: “Fan”, 2021. – 268 b.

13. Belen F. Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid qaydlar // Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 7-32.

14. Belin F. Notice biographic et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d‘ extraits tirés des auvres du méme auteur Premier article // Journal Asiatique. № 17. 1861. – P. 175-256.

15. Belin F. Notice biographic et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d‘ extraits tirés des auvres du méme auteur Deuxieme article // Journal Asiatique. № 17. 1861. – P 281-357.

16. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1905. Tome I.

17. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1912. Tome III.

18. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque national. – Paris, 1912. Tome IV.

19. Hakimov M. Alisher Navoiy kulliyotini ilmiy tavsiflash tajribasidan // Adabiy meros – 15. Toshkent, 1980. – B. 9-16.

20. Hakimov M. Sharq kitobat ishida “Kulliyot”ning o‘rni // Adabiy meros. – Toshkent, 1988. №. 3 [45] – B. 75.

21. Madaliyeva O. Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2021.

22. Sulaymon H. Navoiy asarlarining manbalari va nashri haqida // Alisher Navoiy. G‘aroyibus-sig‘ar. Asarlar. – Toshkent: «O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti», 1963.

23. Sulaymonov H. Alisher Navoiy kulliyoti qo‘lyozmalari tadqiqotidan // Adabiy meros – 3. Toshkent, 1973. – B. 83-92.

24. Sulaymon H. , Sulaymonova F. Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар. – Toshkent: “Fan”, 1982.

25. Sulaymonov H. Alisher Navoiyning Parij kulliyoti // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1981. № 2. – B. 191-194.

26. Suleyman X. Tekstologicheskoye issledovaniye liriki Alishera Navoi. Avtoreferat – dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. – Toshkent. 1961.

27. Toutant M. Materialist Ideology Facing a Great Sufi Poet: The Case of Ali Shîr Nawâ'î in Soviet Uzbekistan; From Concealment to "Patrimonalisation" // Orient: Vol. XLVI. 2011. – P. 29-50.

28. Toutant M. So'z imperiyasi: so'nggi Temuriylar davri qudrati, madaniyati va tasavvuf Alisher Navoiy "Xamsa"si in'ikosida. – Bryussel. 2016. Qarang: Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 42.

29. Toutant M. Taqlid obrazi sharqshunoslik ko'zgusida // Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 42-59.

30. O'zbekistonga oid xorijdagi qo'lyozma asarlar reyestri. 1 tom. – Toshkent: "Tasvir" nashriyoti, 2020. – 501 b. Mas'ul muharrir : t. f. d. , prof. R. Bahodirov. Tuzuvchilar: R. Bahodirov, A. Erkinov, S. G'ulomov, O'. Sultonov, S. Muhammadaminov, O. Madaliyeva va boshq.

NOSIRUDDIN RABG'UZIYNING "QISAS UL-ANBIYO"SIDAN O'RIN OLGAN "ZULQARNAYN QISSASI" TAHLILI

Rahmatjon TO'RAQULOV,
GulDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti

"Qisas ul-anbiyo" qissalari ichida kishi diqqatini tortadigan, uni qiziqtiradigan savollarga javob berishi mumkin bo'lgan diqqattalab qissalardan biri Zulqarnayn qissasidir. Ushbu qissaning manbasi Qur'oni Karimga borib taqaladi. Qur'onning Kahf surasida Zulqarnayn alayhissalom haqida oyatlar kelgan bo'lib, oyatlarda bu zotning ayrim sifatlari, xususan, odillilgi, muvahhid hukmdor ekanligi hamda raiyyat haqqiga rioyat qiluvchi podshoh o'laroq insoniy xislatlarni o'zida jamlagani haqida gap boradi. Shuningdek, u zotning bir o'lka aholisiga Ya'juj va Ma'juj nomli buzg'unchi qavmdan omonlikda bo'lishlariga bois bo'luvchi devor qurdirganliklari bayon etiladi. Ammo Qur'onda ham Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarida ham hazrat Zulqarnaynnning tarjimayi holiga oid yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan boshqa ishonchli ma'lumot uchramaydi. Bu holat muufassirlar va muarrixlar kitoblarida ayni zot shaxsiyati haqida turli xil ma'lumotlar berilishiga sabab bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ibn Kasir "Tafsiri Ibn Kasir" kitobida Zulqarnayn haqidagi oyatlarning sababi nuzuli haqida bayon etib Makka mushriklari ahli kitobdan Nabiy alayhissalomni qanday imtihon qilishlari mumkinligi to'grisida savol so'rashganda, ular Rasulullohdan yer yuzini aylanib chiqqan kishi(ya'ni Zulqarnayn] hayotlarida sodir bo'lgan voqeadan bexabar yigitlar[ya'ni As'hobi Kafh) va ruh haqida so'rashliklari kerakligini aytishadi. Bu savollarga javob o'laroq Alloh taolo Kahf surasini nozil qilganligini bayon etadi. [Ibn Kasir. Tafsir al-Qur'anil Azim. Qohira. 2012]

Ayni ma'lumot Nosirudddin Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo"asarida ham keltirilgan bo'lib, ahamiyatli jihati oyatlar sababi nuzuli bu asarda bir voqelik